

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH BORASIDAGI MUAMMOLAR

Amirov Lochinbek Fayzullayevich

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi dotsenti

Soxibjonova Sug'diyona Soxibjon qizi

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy ishlar tahlil qilinib, duch kelinayotgan muammolar o'rganilgan va ayrim xulosa - takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, yashil o'sish, degradatsiya, global isish, diversifikatsiya, modernizatsiya.

Abstract: This article analyzes the economic and political reforms being implemented in Uzbekistan to transition to a green economy, examines the problems encountered, and provides some conclusions and suggestions.

Key words: green economy, energy efficiency, green growth, degradation, global warming, diversification, modernization.

Аннотация: В статье анализируются экономические и политические реформы, реализуемые в Узбекистане для перехода к зеленой экономике, рассматриваются возникшие проблемы, а также даются некоторые выводы и предложения.

Ключевые слова: зеленая экономика, энергоэффективность, зеленый рост, деградация, глобальное потепление, диверсификация, модернизация.

KIRISH

Sanoat davri inqilobidan to hozirga qadar iqlim o'zgarishi, cho'llashish, tabiiy resurslarning tugab borayotganligi, aholi bandligini ta'minlash murakkablashib kambag'allikning avj olayotgani, chuchuk suv zaxiralarining kamayib borayotgani, oziq-ovqat xavfsizligi, energiyaning yetishmasligi kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal va yetarlicha samarali emasligi sabablaridir. Jahon iqtisodiyotining hozirgi holati va atrof-muhitga yetkazilayotgan tiklab bo'lmas zararlar "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

German Deyli "Steady-State Economics" (1991) nomli asarida barqaror iqtisodiyotning ekologik chegaralarini ilmiy asoslagan bo'lib, u iqtisodiy o'sish cheksiz bo'lishi mumkin emasligini, resurslar qayta tiklanish darajasidan tezroq sarflansa, rivojlanish barqaror bo'lmasligini ta'kidlagan. U barqaror jamiyatda energiya va xomashyolar iste'moli quyidagi uchta shart asosida amalga oshirilishini aytib o'tgan:

1. Qayta tiklanuvchi resurslar iste'moli tezligi darajasi ularning tiklanish tezligi darajasidan oshib ketmasligi shart;
2. Qayta tiklanmaydigan resurslar iste'moli tezligi darajasi ularning o'rini bosuvchi muqobilini tadqiq etish tezligi darajasidan o'tib ketmasligi zarur;
3. Turli chiqindilarni tashlash intensivligi darajasi tabiat tomonidan ularning yutilishi darajasidan oshib ketmasligi kerak.

Maykl Porterning 1995-yilda Iqtisodiy istiqbollar jurnalida (Journal of Economic Perspectives) chop etilgan mashhur “Towards a new conception of the environment-competitiveness relationship” - “Atrof-muhit va raqobatbardoshlik munosabatining yangi tushunchasi tomon” nomli maqolasida ushbu fikrlarni bildirgan: “Ekologik cheklovlar biznes uchun xarajat emas, balki innovatsiyaga turtki bo'lishi mumkin. Qattiq ekologik standartlar korxonalarda resurslardan samaraliroq foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va yangi texnologiyalar yaratishga olib keladi. Natijada korxonalar raqobatbardoshligi oshadi.”

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasida ma'lumotlar qonunchilik hujjatlari, Milliy statistika qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari, ilmiy adabiyotlar va xalqaro manbalardan olindi. Tadqiqotda statistik tahlil, qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda “yashil” iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlandi. Unga ko'ra 6 ta ustuvor yo'nalishda mamlakatda yashil, barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish uchun mavjud ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

1. Tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
2. Milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;
3. Milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash;
4. Innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish;
5. Barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish;
6. “Yashil” iqtisodiyotga o'tish davrida katta ta'sir ostida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash.

1-jadval. 2024-yil resurslar samaradorligi indeksi.

<i>No</i>	<i>Davlatlar</i>	<i>Reyting</i>	<i>Ko'rsatkich</i>
1	Buyuk Britaniya	1	59.65
2	Malavi	2	58.86
3	Shvetsiya	3	57.51
4	Uzbekistan	183	32.14
5	Ummon	184	31.70

Yuqoridagi Global barqaror raqobatbardoshlik indeksi statistikasidan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonning resurs samaradorligi yuqori va boshqa o‘rta daromadli mamlakatlarnikidan ancha past bo‘lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning taqsimlanishi notekisligidan dalolatdir.

Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, chang-qum bo‘ronlarining atrof-muhitga zararli ta’sirlarining oldini olish maqsadida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 588 gektar “yashil bog‘lar”, 662 gektar “yashil jamoat parklari”, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada “yashil belbog‘”lar barpo etildi. Ammo bu yashillikni uzoq muddat saqlab turish uchun sug‘orish tizimida suv tanqisligi bilan qator muammolar mavjud, ya’ni sug‘orishning samarali usullari (tomchilatib, yomg‘irilatib, diskret)ni qo‘llash yetarlicha mablag‘(investitsiya) talab etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti yerning bu kabi muammolari oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligiga jiddiy tahdid solishidan xavotirda. BMTning iqlim bo‘yicha Bokudagi COP-29 sammitida O‘zbekistonda har daqiqada 9 kvadrat metr unumdor yer yo‘qolayotgani, bu esa yer degradatsiyasiga duch kelayotgan har qanday davlat uchun katta muammo hisoblanishi ta’kidlangan. O‘zbekistonda 2030-yilgacha 2 mln gektardan ortiq degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash reja qilingan. Oxirgi 5 yil davomida barqaror yer boshqaruvi va o‘rmonlarni barpo etish bo‘yicha tashabbuslarga 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ ajratilganiga qaramay tizimda korrupsion holatlar mavjudligi va yer degradatsiyasiga boshqa omillar ham bog‘liqligi sababli rejadagidek samara bermayapti.

Hozirgi kunda O‘zbekiston energiya ishlab chiqarish samaradorligi past bo‘lganligi sababli issiqxonalarda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi hamda eksport salohiyatini saqlab qolish maqsadida zararli bo‘lgan arzon ko‘mir va mazutdan foydalanishda davom etmoqda. Yuqorida ta’kidlangan yashillikka erishish borasida yetarlicha mablag‘ ajratilib, keng miqyosli ishlar amalga oshirilayotgan bir paytning o‘zida 2023-2024 yillarda issiqxonalar va ijtimoiy binolarda ko‘mirdan foydalanish hajmi ortgani hisobiga issiqxonalar ko‘p joylashgan hududlar, ayniqsa poytaxtda “yashil belbog‘” o‘rniga “kulrang halqa” paydo bo‘lgani achinarli holat hisoblanadi. 2024-yilgi xalqaro havo sifati hisobotining ifloslanish yuqori hududlar reytingida PM_{2,5} mos ravishda O‘zbekiston 31,4 mkg/m³ ko‘rsatkichi bilan 19-o‘rinni egallagan. 2023-yilda esa reytingda 23-o‘rinni qayd etgan.

2-jadval. O‘zbekistonda havo ifloslanishi ko‘rsatkichi o‘zgarishi.

2022-yil	• 20-o‘rin (33.5 mkg/m ³)
2023-yil	• 23-o‘rin (28.6 mkg/m ³)
2024-yil	• 19-o‘rin (31,4 mkg/m ³)

“Yashil iqtisodiyotga o‘tish satrategiyasi - 2030” qabul qilingach, iqtisodiyot tarmoqlarida texnologik modernizatsiya chuqurlashdi va buning natijasida mehnat bozorida sifatga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Biroq bu jarayon qisqa muddatda

mehnat bozorida ayrim sohalarida tarkibiy ishsizlikni kuchayishiga olib kelishi mumkin. An’anaviy tarmoqlar (ko‘mir, neft-gaz, metallurgiya, kimyo, sement, og‘ir sanoat)da avtomatlashtirish va ekologik standartlarning joriy etilishi, yangi “yashil kasblar” uchun yetarli malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi, hududlar qamrovi notekis taqsimlanishi kabi omillar sababli ish o‘rinlari qisqarishi kuzatiladi.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlik, balki yangi iqtisodiy modeldir. Bu jarayon quyidagi mehnat bozori o‘zgarishlariga olib keladi:

Birinchidan, energiya sarfi va chiqindisi kam bo‘lgan ishlab chiqarishga o‘tish ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashuvini kuchaytiradi. Natijada ayrim kasblar zamonaviy texnologiyalar bilan o‘rin almashadi. Bu esa kam malakali ishchilarning vaqtincha ishsiz qolishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining kengayishi minglab ish o‘rinlarini yaratishni ko‘zda tutgan bo‘lsa, asosiy e‘tibor yuqori malakali mutaxassislariga qaratiladi. Bu esa mehnat bozorida malaka mos kelmasligi bilan ayrim muammolarni yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, hududlarda ishchi kuchi, investitsiya oqimi va loyihalarining taqsimlanishi bir xil emas. Masalan, Navoiy va Buxorodan qurilayotgan yirik quyosh stansiyalari yangi ish o‘rinlarini yaratgan bo‘lsa, ayrim xizmat ko‘rsatish sohalarida ish o‘rinlari qisqarmoqda. Bu esa hududlar bo‘yicha ishsizlikning differensiallashuviga olib kelmoqda.

Statistik prognozlarga ko‘ra, 2030 yilga borib yashil iqtisodiyot yo‘nalishlarida 100 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O‘zbekistonda tabiiy resurslarni tartibli boshqarishni yo‘lga qo‘yish ya’ni mamlakatning aholi zich joylashgan hududlarida havoning keskin yomonlashayotganini hisobga olgan holda, eng dolzarb yashil ustuvorliklar (havo sifatini yaxshilash, yer va suvdan oqilona foydalanish)ga erishish mamlakatda yuritilayotgan iqtisodiy-siyosatning asosiy vazifasi hisoblanadi. Yerdan unumli foydalanish uchun qishloq xo‘jaligida iqlim sharoitlariga mos, uzoq muddatli va yuqori daromadli tarmoqlarga o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ijtimoiy binolarni isitishda foydalanilayotgan ko‘mir o‘rniga quyosh panellaridan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratish ham iqtisodiyot uchun, ham atrof-muhit ifloslanishini oldi olinishi uchun samarali bo‘ladi. Bu chora-tadbirlarning asosida monopoliya o‘rniga raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti muhitini yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoitlar yaratish va korrupsion holatlarning oldi olinishi talab etiladi. O‘zbekistonga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar ijtimoiy transfert to‘lovlarga emas, balki sanoat va ishlab chiqarish sohalariga jalb etilishi iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantiradi va mamlakat YaIMini ham oshiradi. Bu esa eksport hajmi oshishiga ham sabab bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda yashil iqtisodiyotga o‘tishning jamiyatga ta’sirini ham hisobga olish kerak. Yashil sektorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda uglerodni ko‘p talab qiladigan faoliyatdan voz kechish investitsiyalar va ish o‘rinlarining qisqarishiga olib kelmasligi kerak, aksincha ularni rag‘batlantirishi lozim.

Yashil iqtisodiyot o‘rta va uzoq muddatda sifatli, xavfsiz va barqaror ish o‘rinlarini yaratish salohiyatiga ega model hisoblanadi. Ishsizlik bilan bog‘liq muammolarni yumshatishning maqbul yo‘llaridan bo‘lgan yashil kasblar bo‘yicha

qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, yirik yashil loyihalarda mahalliy aholi uchun bandlik kvotalarini belgilash, hududlarda alternative sanoat zonalarini yaratish, yashil tadbirkorlikni subsidiyalar, soliq imtiyozlari va kreditlar orqali rag‘batlantirish, raqamli va texnik ko‘nikmalarni keng o‘rgatish samaradorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. [Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot](#) jurnali
2. [2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida](#)
3. <https://mail.e3.iqair.com/>
4. <https://solability.com/the-global-sustainable-competitiveness-index>
5. www.lex.uz
6. <https://ilmiyanjumanlar.uz/>